

“O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi” kitobi taqdimoti

2018 yil 7 sentabr kuni “O‘zbekiston” nashriyotida taniqli tarixchi-arxeolog olim, o‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi bo‘yicha qator ilmiy maqolalar, risola va kitoblar muallifi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi Ahmadali Asqarovning rus tilida “O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi” nomli asari taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Asar o‘zbek xalqining etnogenezi, etnik va millat bo‘lib shakllanish tarixiga bag‘ishlangan bo‘lib unda xalqimizning yaqin 4 ming yillik tarixi arxeologik, antropologik, etnografik, lingivistik, tarixiy toponimika va qadimgi yozma manbalar ma‘lumotlarining ilmiy tahlili asosida bayon etilgan. Tadqiqotda o‘zbek elatining xalq sifatida tarixan shakllanishi tub joyli turkiy va qadimgi eroniy tilli qabila va elatlarning uzoq asrlar davomida o‘zaro etnik qorishuvi asosida O‘rta Osiyo ikki daryooraliq‘i va unga tutash hududlarda tarkib topganligi o‘z isbotini topgan.

Asar kirish va keng xulosadan tashqari 20 bobdan iborat. Unda foydalanilgan tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar ro‘yxati, atamalar izohli lug‘ati ilova qilingan. Kitob mavzuga tegishli rangli foto materiallar, xaritalar bilan ta‘minlangan.